

Fayziyeva Shamsiya

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti talabasi

Tel:+998947655995; email:[fayziyevashamsiya2003@gmail.com](mailto:fayziyevashamsiya2003@gmail.com)

## CHO'LPONNING "MEHROBDAN CHAYON" ROMANI MISOLIDA KISHILIK VA KO'RSATISH OLMOSHLARINING MORFOLOGIK BELGI- XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada olmoshlar haqida umumiy ma'lumot, kishilik va ko'rsatish olmoshlarining morfologik belgi-xususiyatlari Cho'lponning "Mehrobdan Chayon" romani misolida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** olmosh, kishilik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, uslubiy, xususiyat, so'z birikmasi, gap, tilshunoslik, so'z turkumi, kelishik qo'shimchalari.

**Annotation:** In this article, general information about pronouns, morphological features of personal and demonstrative pronouns are revealed in the example of the novel "Mehrobdan Chayon" by A.Chulpan.

**Key words:** pronoun, personal pronouns, demonstrative pronouns, stylistic, feature, word combination, sentence, linguistics, word group, agreement suffixes.

Ma'lumki so'zlar ma'noviy belgisiga ko'ra uch turga bo'linadi:

- 1 mustaqil ma'noli so'zlar ( fe'l, sifat, ot, son, ravish )
- 2 bo'sh ishora ma'noli so'z (olmosh )
- 3 yordamchi ma'noli so'z ( ko'makchi, bog'lovchi, yuklama )

"Ishoraviylik" ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha chegaralanib " ot, sifat, son o'rnida qo'llanvchi so'z " sifatida o'ta tor ma'noda tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlid, undov, gap va hatto matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan. Olmosh guruhiga men, sen, u, biz, siz, ular kabi shaxsga; nima, bu, mana, ana, mana bu kabi predmetga; qanday, bunday, shunday kabi belgiga; buncha, shuncha, qancha kabi miqdorga; qachon kabi paytga; qayer kabi o'ringa; shunday bo'lmoq, qanday qilmoq kabi harakatga, holatga ishora qiluvchi leksemalar kiradi. Shuni ham aytib o'tish joizki, olmosh hamma vaqt ham qandaydir bir so'zni " almashtirib" uning o'rnida kelavermaydi. Misollar:

1. Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi.
2. Men kecha keldim. Sen buni bilasan.
3. Nima qilsam ham, men o'zim bilaman.
4. Hamma mehmonlar biznikida.

5. Barcha mushkulotlar oson bo'ldi, kabi gaplarda kishilik, belgilash, o'zlik olmoshi hech bir so'zning o'rnini almashtirmagan. Olmoshi qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llansa, shu turkumdagi so'zning gapda qayta qo'llanishiga yo'l bermaydi, ya'ni nutqimizni takrorlardan xalos qiladi. Bu uning muhim uslubiy xususiyati sanaladi:

1. Ot o'rnida qo'llanishi: Akam injener, u zavodda ishlaydi.
2. Sifat o'rnida qo'llanishi: Qizil- tabiatdagi ranglardan biri, u kayfiyatni ko'taradi.
3. Son o'rnida qo'llanishi: O'n beshga bo'linadi, u ikkiga ham bo'linadi.

4. Fe'l o'rnida qo'llanishi: Sigir ekinzorni payhon qildi, bu dehqonni g'azablantirdi.
5. Ravish o'rnida qo'llanishi: Ko'p, oz so'zlari ravish hisoblanadi, bular otlashish xususiyatiga ega.
6. So'z birikmasi o'rnida qo'llanishi: Bizning maktabimiz chiroyli, unda o'qish bizga yoqadi.
7. Gap o'rnida qo'llanishi: Niyatim shuki, O'zbekiston gullab yashnagan diyorga aylansin.

Ayrim hollarda olmosh yordamchi turkumiga oid so'zlarga ham ishora qilishi mumkin:

Biroq, ammo, lekin- teng bog'lovchilar, ular zidlov bog'lovchilaridir.

Arab tilshunosligida olmosh alohida so'z turkumi sifatida berilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida " yashirin ma'noli so'z" ( zamirlar) sifatida alohida guruhlariga ajratilgan. Chunonchi, kitob, daftar, Ali- aniq ma'noli ot bo'lsa, men, sen, u kim- yashirin ma'noli ot ( zamir otlar)dir. Yoxud oq, qizil, chiroyli-ma'lum ma'noli sifat hisoblansa, bunday shunday kabi so'zlar " zemir " sifatidir.

Olmoshning morfologik xususiyatlari:

1. Morfologik usul ( so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shib so'z yasash ) orqali boshqa so'z turkumlaridan yasalmaydi, lekin ular boshqa so'z turkumlarini yasashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan: O'zboshimcha, o'zbilarmon, manman kabilar sifat; O'zidan ketmoq, o'ziga kelmoq kabilar ibora; Sizlamoq, sensiramoq kabilar fe'l; O'zlik-ot; O'zicha, o'zimcha, o'zingcha kabilar esa ravish sanaladi

2. Kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi. Bunda kelishik qo'shimchalari doimo belgili qo'llanishi bilan farq qiladi ( uni, sening, hammaga ). Lekin o'zlik olmoshida qaratqich kelishigi: o'z uyim- o'zimning uyim kabi va so'roq olmoshlarida tushum kelishigi: nima olasiz- nimani olasiz kabi belgili va belgisiz qo'llanishi mumkin. Olmoshlarning egalik qo'shimchalarini qabul qilishida ham e'tibor berishimiz kerak bir qancha jihatlar mavjud. Ko'rsatish olmoshlariga 1-shaxs egalik qo'shimchalari faqat bir marta qo'shiladi:

Shu+im=shunim

Bu+ing=buning

Ko'rsatish olmoshlariga esa ikki marta qo'shiladi:

Sh+i+si=shunisi

Bu+i+si=bunisi

Qaysi, necha, hamma kabi olmoshlar bilan birga qo'llanish xususiyati esa 1-shaxs birlik sondagi egalik qo'shimchalaridan boshqa barcha egalik qo'shimchalariga xosdir. Misol uchun qaysim deb ayta olmaymiz, qaysining, qaysinimiz deyishimiz mumkin yoki bo'lmasa, hammam deb qo'llab bo'lmaydi, hammamiz, hammangiz, hammasi shaklida qo'llash mumkin.

Kishilik olmoshlari esa hech qachon egalik qo'shimchalari bilan birga kelmaydi.

3. Olmoshlar bilan ko'plik qo'shimchasi ham o'ziga xos tarzda qo'llanishini ko'rishimiz mumkin. 1-shaxs birlikdagi kishilik olmoshi men -lar qo'shimchasi bilan birga ishlatilmaydi. 2-shaxs birlikdagi kishilik olmoshi sen -lar bilan birga kelganda ko'pincha tinglovchiga hurmatsizlik bilan mensimay qarash munosabatini ifodalaydi. 1-va 2- shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshlari ( biz, siz ) ga -lar qo'shilganda esa so'zlovchi va tinglovchining ko'pligini emas, so'zlovchi va boshqalar, bir tinglovchi va boshqalarni ifodalab keladi ( bizlar, sizlar ).

Otlarga ishora qiluvchi so'roq olmoshlariga ( kim, nima ) -lar bilan birga qo'llanganda ko'plik va bir shaxsga hurmatni bildiradi. Bunday so'roq olmoshlari takrorlanib ham ko'plikni ifodalay oladi: Kim-kim keldi? Nma-nima olding? Ba'zan bu takrorlardan so'ng ham -lar qo'shilishi mumkin: Kim-kimlar keldi? Nima-nimalar olding?

-lar qo'shimchasi ayrim so'roq olmoshlari bilan birga kelib chama, taxmin kabi ma'nolarni anglashtiradi ( Soat nechalar bo'ldi? ). Qachon so'roq olmoshi -larni olib "ko'p vaqt" degan ma'noni beradi ( Kelganim qachonlar edi ).

Olmoshlar boshqa soʻz turkumlari oʻrnida kelishi va bu soʻzlarning grammatik xususiyatlariga ega boʻlishi bilan bir qatorda, ularning oʻziga xos boʻlgan alohida grammatik belgilari ham bor. Bu belgilar olmoshning alohida soʻz turkumi sifatida ajralishiga imkon bergan belgilardir. Jumladan umumlashgan narsa bildiruvchi olmoshlar maʼlum grammatik xususiyatlariga koʻra otlardan farq qiladi. Bu olmoshlar grammatik son kategoriyasini boshqacharoq ifodalaydi. Birlik va koʻplik shakllari boʻlgan men va biz olmoshlari oʻrtasidagi bogʻlanish otlardagi birlik va koʻplik shakllariga oʻxshamaydi. Men olmoshi bitta soʻzlovchini koʻrsatsa, biz olmoshi esa bir qancha soʻzlovchini emas, balki bir soʻzlovchining boshqa shaxslar bilan birgaligini koʻrsatadi. Olmoshlar ham otlar kabi kelishik qoʻshimchalarini olib oʻzgaradi yaʼni turlanadi. Bu xususda ham otlardan farq qiladi. Maʼlumki otlarda kelishik affiksi tushib qolishi mumkin: choyni ichdim-choy ichdim, daraxtning guli-daraxt guli kabi. Olmoshlarda esa bu holni kuzatmaymiz. Masalan: Bola yugurgancha borib uni qarshi oldi gapidagi uni soʻzida -ni qoʻshimchasini tushirib, u qarshi oldi deb boʻlmaydi. Demak koʻrib chiqqanimizdek, olmoshlarda qaratqich va tushum kelishigi belgili holatda qoʻllanadi.

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos boʻlgan umumiy ( mavhum ) maʼno anglatadi. Olmosh ifoda etadigan maʼnosiga koʻra quyidagi maʼno guruhlariga boʻlinadi:

1. Kishilik olmoshi
2. Koʻrsatish olmoshi
3. Oʻzlik olmoshi
4. Soʻroq olmoshi
5. Belgilash olmoshi
6. Gumon olmoshi
7. Boʻlishsizlik olmoshi

Kishilik olmoshlari nutq soʻzlanayotgan vaqtda ishtirok etgan yoki tilga olingan shaxs va narsaga ishora qiluvchi soʻzlardir. Kishilik olmoshlari asosan ot oʻrnida qoʻllanadi va uch shaxsni ifodalaydi. 1-shaxs (men)-soʻzlovchi, 2-shaxs (sen)- tinglovchi, 3-shaxs (u)- nutq jarayonida ishtirok etmaydigan, soʻzlovchi va tinglovchi tomonidan eslatilgan shaxs yoki narsani bildiradi yaʼni oʻzga. 1-shaxs koʻplik (biz)-soʻzlovchi va boshqa shaxslarni, 2-shaxs koʻplik (siz)-tinglovchi va boshqa shaxslarni, 3-shaxs koʻplik (ular)- nutq jarayonida ishtirok etmaydigan birdan ortiq shaxs yoki narsani ifodalaydi. Birinchi va ikkinchi shaxsdagi men, sen, biz, siz olmoshlari narsalarni koʻrsatish xususiyatiga ega emas. Ular faqat shaxs va shaxslarni ifodalashga xizmat qiladi. Uchinchi shaxsdagi u, ular esa shaxsni ham narsalarni ham koʻrsata oladi.

Eski oʻzbek tilida kamtarlik ifodasi sifatida men olmoshi oʻrnida koʻpincha faqir, qulingiz, kaminayi kamtarin, bandayi ojizingiz kabi soʻz va soʻz birikmalari qoʻllanilgan. Hozirgi oʻzbek tilida ham xuddi shu maʼnoda baʼzan men olmoshi oʻrnida kamina soʻzi ishlatiladi. Men olmoshi oʻrnida yuqorida sanab oʻtilgan soʻzlar gapda ega vazifasida qoʻllanganda, kesim baʼzan 3-shaxs shaklida, baʼzan esa 1-shaxs shaklida (asosan eski oʻzbek tilida) boʻlishi mumkin. Bunda kesim 1-shaxsni bildirsa ham 3-shaxs shaklida boʻladi.

1. Faqir sizning xizmatigingizga bel bogʻlagan.
2. -Xato qilmasam janoblari mirzo Anvarning ustozlari boʻlsalar kerak?  
-Faqir.

3. Kaminalari ham,- dedi oʻrdaliq,-mirzo Anvar bilan devonxonada ishlayman  
Bu gaplarda faqir soʻzi kamtarlik maʼnosini ifodalayabdi.

1. Avvalo erining faqirligʻi, boyigʻandan soʻng boʻlsa uning zarbulmasal boʻlarliq xasisligi bechorani koʻb yigʻlatti.

2. Bu hol ularda aksar faqirliq avjigʻa mingan kezlarda voqiʻ boʻladi.

Ushbu gaplarda esa kamtarlik emas, balki soʻzning oʻz kambagʻallik, nochorlik maʼnosi oʻz aksini topgan.

Ichki monologik nutqda men va sen olmoshlaridan foydalanishda ham oʻziga xoslik bor. Sen olmoshi men olmoshi oʻrnida qoʻllanilib, soʻzlovchining oʻz-oʻzini terqash maʼnosini bildiradi:

Sen oʻzingcha nelar qilyapsan oʻzi?

Yog'lar to'kilsa yerga, yotib yalar taqsim,  
Bo'lsa bozorda pastlik, sotib olar taqsim....

Mehrobdan chayon romanidan, Ra'no yozgan "hajv" dan olingan shu ikki misrada ham olmoshning alohida jihatini ko'rish mumkin. Bu yerda "taqsim" so'zi 1-shaxs birlikda turgan bo'lsada aslida, 3-shaxs birlik, ya'ni Solih maxdumni ifodalamoqda.

1-shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshi biz 2-shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshi siz olmoshi o'rnida ishlatilishi mumkin. Bunday qo'llanishda ko'pincha boshqa shaxslarni ma'lum bir ishni qilishga tashviq qilish, undash ma'nosini anglaymiz: Qani endi biz ham turaylik.

Kishilik olmoshlaridan men olmoshi ko'plik affiksi bilan qo'llanmaydi. Sen olmoshi o'rnida siz, u olmoshi o'rnida ular olmoshi ishlatilib hurmat ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi.

- 1.Ukalarini bola desam, sen ulardan ham oshib tushasan.
- 2.-Ishing bo'lmasa kitob o'qi, husnixat ol, sen kulolning qizi emassanki...
- 3.Men senga mazalik bir hikoya aytsam eshitasanmi?
- 4.Sen...senga mumkinmi, Ra'no?

Yuqoridagi gaplarda olmoshlar o'z o'rnida qo'llangan bo'lsa quyidagi gaplarda esa uslubiy vazifa bajaryabdi;

- 1.Ularni uxlatmay chiqolmadim.
- 2.-Vallohi a'lam, ma'no siz tushunganchadir.

Sen olmoshi -lar affiksi bilan kelganda tinglovchi va boshqa shaxslarga munosabatniyoki tinglovchiga nisbatan kamsitish, mensimaslik ma'nolarini ifoda etadi.

- 1.Senlar ham jim yot ovsinlar.
- 2.Senlar hech qachon yaxshilikni bilmaysanlar.

Romanda esa sen olmoshi -lar bilan birga kelganda hurmat ma'nosini ifoda qilgan o'rin ko'zga tashlanadi: Zero, Anvarning bu boradagi iste'dodi janoblaridan ko'ra kaminaga ma'lumdir, bu to'g'ridan xotirjam bo'lsinlar.

Siz olmoshi ko'pincha birlik sonda hurmat ma'nosini ifodalagani uchun, ikkinchi son ko'plik shaklida sizlar tarzida qo'llanishi mumkin: Sizlar bizning kelajagimiz.

O'zbek tilida 3-shaxs ko'plik olmoshi aslida birlik sondagi olmoshning shaklidir: u+lar=ular

Shaxs olmoshlaridan u boshqa turkiy xalqlardagi singari, o'zbek tilida ham shaklan bir xil. Ammo ular ma'nosi, vazifasi va so'roqlari bilan bir-biridan farqlanadi. Kishilik olmoshlariga egalik qo'shimchalari qo'shilmaydi. Ularning turlanishi deyilganda faqat kelishik qo'shimchalarini qabul qilishi nazarda tutiladi. Kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalarini olib turlanishi jihatidan otlarga o'xshaydi. Men va sen olmoshlariga -ning va -ni qo'shimchalari qo'shilganda, asosda bitta -n tushib qoladi:

Men+ning=mening

Sen+ning=sening

Sen+ni=seni

Men+ni=meni

Siz, biz, u, ular olmoshlariga qo'shilganda asosda hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi.

Siz+ning=sizning

Biz+ning=bizning

U+ning=uning

Ular+ning=ularning

Siz+ni=sizni

Biz+ni=bizni

U+ni=uni

Ular+ni=ularni

Uchinchi shaxs u kishilik olmoshiga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga, chiqish kelishigi qo'shimchasi -dan, o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi -da qo'shilganda bitta -n tovushi orttiriladi:

U+ga=unga

U+da=unda

U+dan=undan

Men, sen, biz, siz, ular olmoshlariga aynan shu qo'shimchalar qo'shilganda hech qanday o'zgarish yuzaga kelmaydi.

Kishilik olmoshlari tuzilishiga ko'ra sodda kishilik olmoshlari va juft kishilik olmoshlariga bo'linadi. Sodda kishilik olmoshlariga men, sen, u, biz, siz, ular, olmoshlari kiradi.

Misol: Senga og'irliq qilsa, o'z bisotimdan kiyintirarman, bolam,-dedi.

Va har kun bolalar ozod bo'lg'anidan so'ngmaxdum unga kofiyadan dars berardi.

Juft kishilik olmoshlariga siz-biz, siz-u biz olmoshlari kiradi: Siz-u biz ko'pni ko'rgan odamalrmiz, oq-u qoraning farqini yaxshi bilamiz.

Ko'rsatish olmoshi-oldingi gap gapdagi biron-bir so'z, so'z birikmasi o'rnida qo'llanilib, unga ishora qiluvchi yoki biror so'zni aniqlab keluvchi olmoshlar. Olmoshning bu turiga-u, bu, shu, o'sha, ushbu, mana shu kabi so'zlar kiradi. Ko'rsatish olmoshlari tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi.

1.Sodda ko'rsatish olmoshlari-u, bu, shu, o'sha

2.Qo'shma ko'rsatish olmoshlari-mana shu, ana shu, mana bu, anavi(ana u)

Ko'rsatish olmoshlari:

1.So'zga ishora qiladi-Anvar bosh munshiylik vazifasig'a yorlig' olg'undek bo'lsa, bu lavozimotni ado qila olurmi?

2.So'z birikmasiga ishora qiladi-Ammo mirzo Anvarning uhda qila olishi muhaqqaqdir. Zero, Anvarning bu boradagi iste'dodi janoblaridan ko'ra kaminaga ma'lumdir.

-O'z farzandlaridek bo'lib qolg'an-da?

-Undan ham Afzal.

3.Gapga ishora qiladi-Xudo yosh bersin,- dedi Shahidbek,-mirzoni o'zlariga domod qilsalar ham bo'lar ekan, xrrr?

-Ushbu mulohazamiz ham yo'q emas,-dedi maxdum.

4.So'z ma'nosini aniqlab keladi. Bunda olmosh o'zi aniqlayotgan so'zdan oldin keladi-Maxdumga kutilmagan ravishda mehribon muomala qilayotgan bu o'rdaliq qirq yoshlar chamasida, uzun bo'lyiq, qora uzun soqolliq, simobi sallasining peshini tushirg'an qoracha tuslik bir yigit edi.

Ko'rsatish olmoshlari qaysi? so'rog'iga javob bo'ladi. Ko'rsatish olmoshlari so'zlovchi bilan ko'rsatayotgan narsa orasidagi masofa, vaqt munosabatiga ko'ra qo'llaniladi. Bu olmoshi so'zlovchiga ancha ayon bo'lgan, unga nisbatan yaqin masofada turgan, yaqinda eslatilgan narsa, voqeani ko'rsatishga xizmat qiladi: Shuningdek, sizni ham yuqori martabaga ko'tarmakchiga o'xshaydirlarkim, xrrr... buni sizning havaskorlig'ingiz emas, fazlingiz taqozo qilib, bunda siz asosan qancha qarshi bo'lsangiz ham, xrrr... layoqatingiz yana sizni bu xizmatni qabul qilishka majbur etadir.

Shu olmoshi so'zlovchining ko'z oldida bo'lgan yoki yaqin vaqt ichida so'zlab o'tilgan predmet yoki voqeani eslatish, boshqalardan ajratish yo'li bilan ko'rsatish uchun ishlatiladi: Maxdum shu gapni aytish orasi qone' va mag'rur Shahidbekka qarab oldi.

Shu olmoshida ta'kid ma'nosi kuchli bo'ladi: Xizmat shuki,- deb kuldi tunqotar,- sizning ustingizdan bir o'ktamlilik qilindi?

U olmoshi so'zlovchiga nisbatan ancha uzoqda turgan yoki ancha ilgari eslatib o'tilgan narsalarni ko'rsatadi: U ishlarni qilish uchun aqlsizlik qilmas deb o'yladi.

O'sha ko'rsatish olmoshi so'zlovchiga ilgaridan ma'lum bo'lgan, ilgari eslatib o'tilgan narsa, vaqt yoki hodisani ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi: Habba... himmatingga!- deb yubordi maxdum,- albatta-ku, shunday va lekin o'sha niyatlarindan keyin boyag'idek alohida pul yig'sang deyma-da...

Mohlar oyimning Ra'noni Anvarga berish to'g'risidag'i "ahamiyatsiz" so'zlari o'sha vaqtlarda maxdumning ensasini qotirgan bo'lsa, hozir shu haqda chinlab o'yladig'ina emas, balki "haligidek Anvarning baxti ochilib ketsa" nima malomati bor.

Bu, shu, o'sha olmoshlarini yuqoridagi ta'riflarga mos holda qo'llash uslubiy jihatdan o'rinli bo'ladi. Haqiqatdan ham, ko'z oldimizda turgan choynakka nisbatan "o'sha choynak" deb ko'rsatish xato. O'sha choynak so'z birikmasida o'sha olmoshi to'g'ri qo'llangan bo'ladi, qachonki bir paytlardagi choynak ma'nosi anglatilsa, ko'rsatilsa. Bu, shu, o'sha olmoshlari eski o'zbek tilida ul, shul, bul, o'shal

ko'rinishida qo'llangan: Kimlarning vositasi bilandir mazkura go'zal kanizning ta'rifi Buxoro amiri-amir Nasrullo-(Botur) xong'a yetib, ul ham ilgaridan haligi kanizga g'oyibona oshiq bo'lgan edi.

Ko'rsatish olmoshlari ular ishora qiladigan narsaning makon va zamonga munosabati nuqtai nazaridan aniq va noaniq ma'noli ekanligi bilan farqlanadi. Aniq ma'noni ifodalovchi ko'rsatish olmoshlari makon va zamonning yaqin uzoqligini ifodalashiga ko'ra ikki xil bo'lishi mumkin. Masalan: a) shu olmoshi so'zlovchiga masofa va vaqt jihatidan yaqin bo'lgan voqea yoki narsani bildiradi- Xo'b, bo'lmasa, erta kechka shu yerga kelib, menga uchrashsin.

b) o'sha olmoshi so'zlovchidan nariroqdagi narsani yoki avvalroq bo'lgan voqeani bildiradi- Yosh chog'ida otasi o'lib, qattig'chiliqda o'sdi, uning ba'zi yarashmag'an harakatlari balki o'sha qattig'chiliqning ruhka singib qolgan yomon ta'siridir.

Noaniq ma'noli ko'rsatish olmoshlari noaniq narsa, notanish shaxs yoki voqealarni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Masalan bu olmoshi avvaldan ma'lum bo'lmay, so'zlashuv jarayonidagina ma'lum bo'lgan, so'zlovchining yaqinidagi narsa yoki shaxsni ko'rsatadi. U olmoshi ham so'zlash jarayonida ma'lum bo'lgan, lekin so'zlash vaqtida mavjud bo'lmagan yoki so'zlovchidan uzoqroqdagi narsa yoki voqeani ko'rsatadi. Mana, ana so'zlari ham masofa ko'rsatishga ko'ra farqlanadi. Mana so'zi ko'rsatish olmoshlari bilan birikib kelganda yaqindagi narsani, ana so'zi esa uzoqdagi narsani ko'rsatadi:

-Habba... mana shu yerga Anvar akangga uy solib beramiz, Ra'no.

Mana, ana so'zlari o'sha olmoshi bilan birikib kelganda, qo'shma olmosh emas alohida so'z sifatida ishtirok etadi. Yozuvda mana shu, ana shu, ana bu olmoshlari ajratib yoziladi. Ba'zan bu olmoshlar og'zaki nutqda manavi, anavi tarzida talaffuz qilinishi mumkin:

Ul o'zining shu to'g'rilig'i soyasida hamisha anovi mirzolarning ishiga biloqasd xalal berib, chirishni buzub turar, ham shu va boshqacha sabablardan ularning adovatig'a yaxshig'ina hadaf bo'lg'an edi.

Ko'rsatish olmoshlari quyidagi so'zlar o'rnida qo'llana oladi:

1.Belgi(sifat) o'rnida:

2.Ot o'rnida. Bunda ko'rsatish olmoshi otga xos egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini qabul qiladi:

Ko'rsatish olmoshlariga -ga, -da, -dan kelishik qo'shimchalari qo'shilganda tovush ortadi:

Bu+ga=bunga

Shu+da=shunda

U+dan=undan

-im, -ing, -ingiz, -i, -imiz egalik qo'shimchalari ta'sirida tovush ortadi:

Bu+im=bunim

Shu+ing=shuning

O'sha+i=o'shani

-day, -dek, -cha, -qa qo'shimchalarini qabul qilganda ham tovush ortadi:

Bu+cha=buncha

Shu+day=shunday

Ko'rsatish olmoshlari tuzilishiga ko'ra 4 turga bo'linadi:

1.Sodda- u, bu, shu, o'sha, ana, mana

2.Qo'shma- ana shu, mana bu, ana o'sha

3.Juft- u-bu, ul-bul, uncha-buncha

4.Takroriy- shu-shu, o'sha-o'sha.

Olmoshlar zamonaviy til bilan aytganda "ichi bo'sh" so'zlardir. Olmoshlar og'zaki nutqda ham yozma nutqda ham birdek muhim o'rin egallaydi. Olmosh shunday murakkabki, u so'z, so'z birikmasi, ibora, gap hatto butun boshli matn o'rnida qo'llana olish, boshqa so'z turkumlariga ishora qilish xususiyatiga ega hisoblanadi. Olmoshlar nutqimizni takrorlardan, g'alizliklardan qutqaradi. Olmoshlar foydalanilishi va vazifasi jihatidan asarlarda ham o'z o'rniga ega. Biz buni Mehrobdan chayon romani misolida ham ko'rib chiqdik va guvohi bo'ldikki, olmoshlarning har bir qonun-qoidasi, xususiyatlari, o'ziga xosliklari, uslubiy jihatdan bajaradigan vazifalari asarda o'z tasdig'ini topgan. Olmoshlar mavzusini o'rganish uchun bu asar yaqqol namunadir.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.Erkaboyeva Ona tili fanidan ma'ruzalar to'plami, Toshkent-2022 "O'zbekiston" 416b
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Jamolconov H, oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent-2005 "Talqin" 272b
3. Hozirgi o'zbek tili. R. Sayfullayeva, Toshkent 2023. 544b
4. F.T Shodiyev, Ona tili, o'quv qo'llanma. Samarqand 2020. 400b
5. Hozirgi o'zbek adabiy tili. D. Lutfullayeva, M. Saparniyozova, Toshkent-2018 " Iqtisodiyot Moliya " 280b
6. Hozirgi o'zbek tili Baxtiyor Megaliyev, Toshkent 2018. 197b
7. A. Qodiriy Mehrobdan chayon, Toshkent-2019 " Yoshlar Nashriyot Uyi " 327b.